Abdullayeva Madina Kamilovna	
UY-JOY QURILISHI SOHASIGA ESKROU MEXANIZMINI JORIY ETISH ORQALI ULUSHDORLAR MABLAG'LARINI HIMOYA QILISH ISTIQBOLLARI	827
Nigmatov Akbarjon Anvarovich	
TASHQI SAVDO BALANSINI MUVOZANATLASHTIRISH	831
Rahimov Eshmurod Normurodovich, Misliddinov Ikromjon Kamoliddin o'g'li	
DON VA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING YEVROPA TAJRIBASI	837
Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li	
RAQAMLI SUG'URTA (INSURTECH) EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA MOLIVAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	842
Nozimov Eldor Anvarovich	
MAHALLIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ASOSIDA IMPORT O'RNINI BOSUVCHI MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH STRATEGIYASI	847
Sobitova Ra'no Solidjonovna	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBALARI.....	850
Raxmonov Aziz Iskandarovich	
COST ANALYSIS IN FRUIT AND VEGETABLE PROCESSING PLANTS.....	855
Rahmatullayev Mirjalol Khatam ogli	
OLIY TA'LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH TIJORAT SIRINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	861
Butayev Dilshod Eshbekovich	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ОБЛАЧНЫЕ БУХГАЛТЕРСКИЕ СИСТЕМЫ: НАДЁЖНОСТЬ ОТЧЁТНОСТИ И КИБЕРБЕЗОПАСНОСТЬ.....	867
Бозорова Озода Рахимовна	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANKLARNING CHAKANA KREDITLASH AMALIYOTI TAHLILI	872
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
XALQARO STANDARTLARNI AMALGA OSHIRISH JARAYONIDA AUDITORLAR VA KORXONALAR UCHUN AMALIY TAVSIYALAR.....	877
Ibragimov Azizbek Keldibek o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	882
Akbarov Husniddinjon Mo'ysin o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH	888
Omanov Sanjar Qurbonazar o'g'li	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI SOLIQ IMTIYOZLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI.....	894
Usmonov Shavkatjon Shukurovich	
АДАПТАЦИЯ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ В НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ	901
Абилов Эльман Худаверди оглы	
QURILISH SOHASIDA KORPORATIV IJTIMOIIY MAS'ULIYAT: XALQARO TAJRIBA VA QIYOSIY TAHLIL.....	906
Murotkosimov Shoxrux Abdisalimovich	
TADBIRKORNING KREDIT, FOIZ, SOLIQ TO'LOVLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI XUSUSIDA.....	914
Hakimov Odil Arziqulovich	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDI IQTISODIYOTNING REAL SEKTORIGA KIRITILGAN INVESTITSIALARNI MOLIYALASHTIRISHNING XUSUSIYATLARI	918
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KORXONALARDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	925
Xalilova Aziza Rustamovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	930
Uzakova Umida Ruziyevna	
INVESTITSIYA JALB QILISHNING HUDUDIIY MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIIY MAZMUNI.....	936
Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
HUDUDLARNING TURISTIK SALOHIIYATINI OSHIRISHDA TURISTIK ZONALARNING AHAMIYATI	940
Umarova Mahliyo Yaxshiboy qizi	
HUDUD OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI SANOATI ISHLAB CHIQARISH KO'RSATKICHLARI SAMARADORLIGINING EKONOMETRIK VA STATISTIK TAHLILI.....	945
Xursanov Sherzod Ulaboyevich	
YUK TASHUVLARIDA LOGISTIK PROVAYDERLAR FAOLIYATINING NAZARIY-USLUBIIY ASOSLARI	951
Mannapova Feruza Faxriddin qizi	



MAMLAKAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	956
Mirzaraximova Aziza Azimdjanoyna	
IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI RAQOBATCHILIK MUHITINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	963
Maxmudova Ferangis Raxmatillayevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT TARAQQIYOTINING HOLATI VA USTUVOR MAQSADLI KO'RSATKICHLARI	968
Saidova Madinaxon Hoshimjon qizi	
FERMER XO'JALIKLARINING O'ZBEKISTON AGRAR SEKTORIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	973
Islamova Dilnoza Isamidinova	
ZIYORAT TURIZMINING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	978
Uzaqov Jamshid Norboyevich	
TIJORAT BANKLARINING EMISSION OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	983
Shaymanov Mexriddin Ibragimovich	
ISLOM MOLIYASIDA MAJBURIYAT VA OMONAT MEXANIZMLARI: RAHN, VADIYA VA HAVALA.....	987
Sadikova Ra'no Abdullaevna	
FIRIBGARLIK BILAN BOG'LIQ AUDITORLIK TEKSHIRUVI RISKLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI	991
Sirojiddinov Ikromiddin Qutbiddinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ И ОЦЕНКА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ UZAUTO MOTORS.....	996
Шарилов К.А., Зайнутдинова У.Дж.	
XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA BANDLIK BILAN TA'MINLASHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR VA MUAMMOLAR TADQIQI.....	1005
Mirzayev Qulmamat Djonuzokovich, Saparov Murod Irgashovich	
YO'LOVCHI TASHISH XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	1010
Alisher Kurambayev	
SUG'URTA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TAKAFUL SUG'URTASINING O'RNI VA IMKONIYATLARI.....	1014
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING JORIY HOLATI TAHLILI.....	1020
Valikulov Sherzod Zaynitdinovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA MARKETPLEYSLARNI SHAKLLANTIRISH: INVESTITSIYALAR, XARAJATLAR VA FOYDA.....	1029
Axmedova Dilshoda Xayrulla qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	1033
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich, Muminova Shahlo Madaminjon qizi	
OLIY TA'LIMDA GENDER TENGLIKNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	1039
Xaydarova Sayyora	
ANALYZING THE COMPETITIVE ADVANTAGES OF SOUTH KOREA IN GLOBAL MICE TOURISM: HISTORICAL AND CULTURAL DIMENSIONS.....	1043
Ortikova Sabohat, Gulomova Mukhlisa, Ochilova Hilola Farmonovna	
MEHMONXONA BIZNESIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)	1050
Usmanova Gulida Valiyevna	
ETHICAL ASPECTS OF ECOTOURISM: BALANCING SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND MORAL RESPONSIBILITY.....	1055
Gulbakhor Sattarovna Abdullakhanova	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSIYA FAOLLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	1062
Sobirov Abdurasul Abdugafarovich	



KADRLAR BOSHQARUVIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1068
Urazov Sadulla Shodiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY JINOYATLARNING OLDINI OLISHDA KOMPLAENS-NAZORATNING ROLI.....	1074
Zokirov Ismoiljon Ibroximovich	
AGROSERVIS SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH YO'LLARI	1078
Pardayev Mamayunus Qarshibayevich, Feruz Nematullayevich Abilov	
KO'MIR UCHUVCHI KULI ASOSIDAGI FLY ASH BETON VA GEOPOLIMER MATERIALLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN IQTISODIY VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH	1083
Muradov Botir Xayat	
КРЕАТИВНАЯ ЭКОНОМИКА В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПРЕДПОСЫЛКИ В УЗБЕКИСТАНЕ	1091
Рахимова Манзура Хамид кизи	
DUE DILIGENCE IN AUDITING AS A FACTOR ECONOMIC EFFICIENCY IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	1098
Sidikov Dilmurod	
MAJBURIYATLAR HISOBINI MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1102
Ergasheva Vasila Abdumajitovna	
ИННОВАЦИОННЫЕ МАРКЕТИНГОВЫЕ СТРАТЕГИИ И ПРОЦЕССЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ	1106
Рахимова Тамила Баходур кизи	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIVAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1113
Abdusattarova Dildora Bohodirovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH BORASIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	1120
Djurayeva Lola Abdugabbarovna	
HUDUDLARDA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA DAVLAT BUDJETIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1125
Egamnazarova Gulnoza Xolmurod qizi	



HUDUDLARDA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA DAVLAT BUDJETIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Egamnazarova Gulnoza Xolmurod qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

gulnoza@tersu.uz

<https://orcid.org/0009-0009-6406-1789>

Annotatsiya. Mazkur maqolada 2019–2025-yillarda davlat budjeti mablag'larining hududlarda aholi daromadlariga ta'siri iqtisodiy-statistik va panel-ekonometrik usullar asosida tahlil qilingan. Ijtimoiy xarajatlar, investitsiya xarajatlari va budjet transfertlarining real daromadlar o'sishiga ta'siri baholandi. Tadqiqot natijalari davlat budjeti xarajatlari va aholi daromadlari o'rtasida ijobiy hamda statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Investitsiya xarajatlari multiplikativ ta'sirga ega ekani aniqlandi. Kambag'allik darajasining pasayishi fiskal siyosatning qayta taqsimlovchi va rag'batlantiruvchi rolini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari budjet mablag'larini manzilli va natijaga yo'naltirilgan tarzda taqsimlash zarurligini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: davlat budjeti, aholi daromadlari, hududiy rivojlanish, investitsiyalar, kambag'allik.

Abstract. This article analyzes the impact of state budget expenditures on household incomes in the regions for the period 2019–2025 using economic-statistical and panel econometric methods. The effects of social expenditures, investment expenditures, and budget transfers on real income growth were evaluated. The results indicate a positive and statistically significant relationship between government budget expenditures and household incomes. Investment expenditures were found to have a multiplicative effect. The reduction in poverty levels confirms the redistributive and stimulating role of fiscal policy. The study substantiates the necessity of targeted and results-oriented allocation of budget funds.

Key words: state budget, household income, regional development, investment, poverty.

Аннотация. В статье проанализировано влияние средств государственного бюджета на доходы населения в регионах за 2019–2025 годы на основе экономико-статистических и панельных эконометрических методов. Оценено влияние социальных расходов, инвестиционных расходов и бюджетных трансфертов на рост реальных доходов населения. Результаты исследования показали наличие положительной и статистически значимой взаимосвязи между государственными бюджетными расходами и доходами населения. Установлено, что инвестиционные расходы обладают мультипликативным эффектом. Снижение уровня бедности подтверждает перераспределительную и стимулирующую роль фискальной политики. Исследование обосновывает необходимость целевого и ориентированного на результат распределения бюджетных средств.

Ключевые слова: государственный бюджет, доходы населения, региональное развитие, инвестиции, бедность.

KIRISH

Aholi daromadlarini barqaror oshirish milliy iqtisodiy siyosatning pirovard natijalaridan biri bo'lib, hududlarda aholi daromadlarini oshirish masalasi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, iqtisodiy transformatsiya jarayonlarini amalga oshirayotgan mamlakatlarda davlat budjeti orqali resurslarni qayta taqsimlash hududiy nomutanosibliklarni yumshatishda muhim instrument sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda "mahallabay ishlash" tizimi joriy etilib, davlat budjeti mablag'lari orqali yangi ish o'rinlari yaratish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, infratuzilmani rivojlantirish hamda ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli dasturlar amalga oshirilmoqda. Davlat budjeti ushbu jarayonda qayta taqsimlovchi va rag'batlantiruvchi mexanizm sifatida faol ishtirok etmoqda.



Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, davlat xarajatlarning aholi daromadlariga ta'sirini izohlovchi bir qator nazariy yondashuvlar mavjud. Xususan, Keynes nazariyasiga ko'ra, davlat xarajatlari iqtisodiyotda multiplikativ samara hosil qilib, daromadlar o'sishini rag'batlantiradi. Fiskal federalizm nazariyasi (Oates)ga muvofiq, budget transfertlari hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizliklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, kontrtsiklik fiskal siyosat iqtisodiy beqarorlik davrlarida aholi daromadlarini qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy faollikni rag'batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy daromadlar o'sishi va davlat budjeti o'rtasidagi bog'liqlik masalasi xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng tadqiq etilgan. Keynes nazariyasiga ko'ra, davlat xarajatlari yalpi talabni oshirish orqali iqtisodiy faollikni kengaytiradi, bandlik darajasini oshiradi va aholi daromadlarining o'sishiga multiplikativ ta'sir ko'rsatadi. Ushbu yondashuv davlat budjeti xarajatlarini iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantiruvchi muhim makroiqtisodiy vosita sifatida asoslaydi.

Fiskal federalizm nazariyasi (Oates) esa hududiy budjetlar mustaqilligi va markaziy budjet transfertlari o'rtasidagi muvozanat hududlar rivojlanishini ta'minlashda hal qiluvchi omil ekanligini ta'kidlaydi. Mazkur nazariyaga ko'ra, budjet transfertlari hududlar o'rtasidagi daromadlar tafovutini kamaytirish, iqtisodiy tenglikni ta'minlash va hududiy rivojlanishni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston sharoitida davlat budjeti mablag'lari aholi daromadlariga bir qator yo'nalishlar orqali ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, ijtimoiy transfertlar (nafaqalar va moddiy yordamlar), yangi ish o'rinlarini yaratish dasturlari, infratuzilmaviy investitsiyalar hamda tadbirkorlik faoliyatini subsidiyalash mexanizmlari aholi daromadlarini oshirishning muhim moliyaviy va institutsional omillari sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu yo'nalishlar orqali davlat budjeti hududiy iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va aholi turmush darajasini izchil oshirishda muhim rol o'ynamoqda.

Klassik iqtisodchi olim Richard Musgrave davlat moliyasining uchta asosiy funksiyasini — qayta taqsimlash, barqarorlashtirish va resurslarni samarali taqsimlash funksiyalarini ilmiy jihatdan asoslab bergan¹. Uning konsepsiyasiga ko'ra, davlat budjeti daromadlar tengsizligini kamaytirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hamda iqtisodiyotda resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantirish orqali aholi farovonligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Yana bir mashhur iqtisodchi Wallace E. Oates hududiy budjet transfertlari va markazlashgan moliya siyosatining mahalliy rivojlanishga ta'sirini nazariy jihatdan asoslab bergan². Uning fiskal federalizm konsepsiyasiga ko'ra, markaziy budjetdan ajratiladigan transfertlar hududlar o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosibliklarni yumshatish, mahalliy iqtisodiy faollikni rag'batlantirish hamda aholi daromadlari o'sishini qo'llab-quvvatlashda muhim moliyaviy instrument hisoblanadi.

Mahalliy iqtisodchi olim U. Qodirov tadqiqotlarida davlat budjeti xarajatlarning ijtimoiy tarkibi chuqur tahlil qilinib, ularning aholi daromadlariga ta'siri empirik jihatdan baholangan³. Muallifning ta'kidlashicha, budjetning ijtimoiy yo'naltirilgan funksiyasining kuchayishi aholi farovonligini oshirish va kambag'allik darajasini qisqartirishga xizmat qiluvchi muhim moliyaviy omil hisoblanadi.

Iqtisodchi olim A. Islamkulovning ilmiy ishlarida hududiy moliyaviy resurslardan samarali foydalanish aholi daromadlarini oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida asoslab berilgan⁴. Muallif budjet transfertlari hamda investitsiya xarajatlarning iqtisodiy o'sishga va aholi daromadlariga multiplikativ ta'sirini tahlil qilib, davlat moliya siyosatining hududiy rivojlanishni rag'batlantirishdagi muhim rolini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, statistik tahlil, dinamik qatorlar usuli hamda regressiya tahlili elementlaridan foydalanildi. Hududlar kesimida davlat budjeti xarajatlari va aholi real daromadlari o'rtasidagi bog'liqlik darajasi korrelyatsion-regression yondashuv asosida baholandi. Ushbu yondashuv davlat moliya siyosatining aholi farovonligiga ta'sirini ilmiy jihatdan aniqlash imkonini berdi.

Tahlil jarayonida quyidagi ekonometrik modeldan foydalanildi:

$$Y = \alpha + \beta_1 B + \beta_2 I + \beta_3 S + \varepsilon$$

1 Musgrave, R. A. (1959). The theory of public finance: A study in public economy. McGraw-Hill.

2 Oates, W. E. (1972). Fiscal federalism. Harcourt Brace Jovanovich.

3 Қодиров, У. (2020). Давлат бюджети харажатларининг ижтимоий йўналтирилганлиги ва аҳоли даромадларига таъсири. Молия ва иқтисод, 4(28), 15–23.

4 Исламкулов, А. Х. (2022). Худудий молиявий механизмларни такомиллаштириш орқали аҳоли даромадларини ошириш. Иқтисодиёт ва таълим, 6, 42–49.



Bu yerda:

- Y — aholi real daromadlari;
- B — davlat budjeti xarajatlari;
- I — investitsiya xarajatlari;
- S — ijtimoiy transfertlar;
- α — erkin had (konstanta);
- $\beta_1, \beta_2, \beta_3$ — model koeffitsiyentlari;
- ε — tasodifiy omil.

Mazkur metodologiya asosida budget xarajatlarining aholi daromadlariga ta'siri miqdoriy jihatdan baholanib, ularning iqtisodiy samaradorligi bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududlar kesimida aholi daromadlarini oshirish iqtisodiy o'sish natijalarini keng qatlamlarga yetkazish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash hamda kambag'allikni qisqartirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Davlat budjeti mablag'lari orqali amalga oshiriladigan qayta taqsimlash mexanizmi, ayniqsa, ijtimoiy himoya, infratuzilma, ta'lim, sog'liqni saqlash hamda bandlikni qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari orqali hududlar o'rtasidagi iqtisodiy farqlarni muvozanatlashtirishga xizmat qilmoqda.

Mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida davlat budjeti xarajatlarining izchil o'sishi kuzatilmoqda. Xususan, hududiy investitsiya dasturlari va ijtimoiy xarajatlar ulushining ortishi aholi daromadlari o'sishini rag'batlantiruvchi muhim omil bo'ldi. Aholi real daromadlari o'sishiga quyidagi asosiy omillar ijobiy ta'sir ko'rsatgan:

- ish haqi fondining kengayishi;
- yangi ish o'rinlarining yaratilishi;
- ijtimoiy nafaqalar va to'lovlarning muntazam indeksatsiya qilinishi;
- tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining kengaytirilishi.

Olib borilgan iqtisodiy-statistik tahlillar natijalariga ko'ra, davlat budjeti xarajatlari va aholi daromadlari o'rtasida ijobiy hamda statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik mavjudligi aniqlandi ($r \approx 0,72-0,85$). Ayniqsa, kapital xarajatlar va daromadlar o'sishi o'rtasida yuqori elastiklik kuzatilgani davlat investitsiyalarining multiplikativ ta'sirga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, respublikada hududiy budjetlar mustaqilligini oshirishga qaratilgan muhim mexanizm joriy etildi. Unga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri hamda tuman va shaharlar budjetlari daromadlari prognozi ortig'i bilan bajarilgan taqdirda, ushbu qo'shimcha mablag'lar tegishli hududlar ixtiyorida to'liq qoldiriladi. Mazkur amaliyot hududiy moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, qo'shimcha investitsiyalar va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish orqali aholi daromadlari o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Aholi daromadlari o'sishi, odatda, ma'lum darajada inertsia xususiyatiga ega bo'lib, ayniqsa investitsiya xarajatlari orqali yaratilgan iqtisodiy faollik multiplikativ samara beradi. Shu sababli, hududiy daromadlarning o'sishi davlat budjeti mablag'larining manzilli yo'naltirilishi va investitsiya xarajatlari samaradorligiga bevosita bog'liq hisoblanadi.

Respublikada aholi daromadlarining o'sish dinamikasi keyingi bosqichda 1-jadval ma'lumotlari asosida batafsil tahlil qilinadi.

1-jadval. Aholi real daromadlarining o'sish dinamikasi⁵

Ko'rsatkichlar	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2025 y. (reja)
Aholi umumiy daromadi, mlrd so'mda	550 747,3	667 418,6	779 085,7	954 252,0	1 134 252,7
Real o'sish sur'ati, foizda	112,7	109,2	105,0	108,1	–
Kambag'allik darajasi, foizda	17,0	14,1	11,0	8,9	5,8

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, aholi umumiy daromadlari nominal hajmi barqaror o'sish trayektoriyasiga ega bo'lib, 2021-yildagi 550,7 trln so'mdan 2024-yilda 954,2 trln so'mga yetgan hamda 2025-yilda 1 134,3 trln so'mga yetishi prognoz qilinmoqda. Shu bilan birga, real o'sish sur'ati 2021-yildagi 112,7 foizdan 2024-yil yakunlari bo'yicha 108,1 foizni tashkil etgan bo'lib, bu iqtisodiy o'sishning barqaror bosqichga o'tayotganini ko'rsatadi. Kambag'allik darajasi esa ijobiy tendensiyani namoyon etib, 2021-yildagi 17,0 foizdan 2025- yil yakuniga borib 5,8 foizgacha kamayishi kutilmoqda. Bu holat davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samaradorligi ortib borayotganini tasdiqlaydi.

5 Муаллиф ҳисоб-китоби (https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_321.pdf маълумотлари асосида)



Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, respublikada davlat budjeti mablag'laridan foydalanish samaradorligini baholash tizimi bosqichma-bosqich takomillashib bormoqda. Ayrim hududlarda mavjud imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish orqali qo'shimcha iqtisodiy natijalarga erishish salohiyati mavjud. Shu bilan birga, ijtimoiy xarajatlar aholining turmush darajasini qo'llab-quvvatlash va ichki talabni rag'batlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Davlat budjetidan ajratilayotgan mablag'lar aholi daromadlarini oshirishda muhim rag'batlantiruvchi omil sifatida qisqa muddatda sezilarli ijobiy natijalar bermoqda. Uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida esa budjet resurslarini investitsiya loyihalari, ishlab chiqarish infratuzilmasi va yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan tarmoqlarga yo'naltirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, hududiy moliyaviy mustaqillikni kengaytirish, natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish mexanizmlarini chuqurlashtirish hamda mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali aholi daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlash imkoniyatlari yanada kengayadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hududlarda aholi daromadlarini oshirishda davlat budjeti mablag'lari asosan uchta muhim yo'nalish orqali ta'sir ko'rsatadi. Jumladan:

1. Ijtimoiy xarajatlar va transfertlar. Pensiya, nafaqa, moddiy yordam va ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirish aholi iste'molini qo'llab-quvvatlaydi hamda kam ta'minlangan qatlamlar daromadlarini barqarorlashtiruvchi muhim mexanizm vazifasini bajaradi. Xususan, 2024 yil reja ko'rsatkichlarida ijtimoiy xarajatlar ulushining yuqoriligi aholining ijtimoiy himoyasini mustahkamlashga qaratilgan ustuvor siyosat yuritilayotganini ko'rsatadi.

2. Bandlik va tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi dasturlar. Subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va infratuzilmaga yo'naltirilgan xarajatlar yangi ish o'rinlari yaratish, mehnat daromadlarini oshirish hamda tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish orqali aholi daromadlarining o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

3. Hududiy infratuzilma va investitsiya xarajatlari. Yo'llar, kommunikatsiyalar, ijtimoiy obyektlar va sanoat zonalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar xususiy sektor faolligini rag'batlantiradi hamda uzoq muddatli istiqbolda daromadlar bazasining kengayishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kelgusida hududlarda aholi daromadlarini oshirishda davlat budjeti mablag'laridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish maqsadida quyidagi amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

1. Davlat budjeti mablag'larini manzilli va natijaga yo'naltirilgan tamoyillar asosida taqsimlash tizimini yanada takomillashtirish. Bu mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish va ularning ijtimoiy-iqtisodiy natijadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

2. Hududiy infratuzilma va ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtirishga ustuvor ahamiyat qaratish. Mazkur yo'nalish aholi bandligini oshirish, yangi daromad manbalarini yaratish va hududlarning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash imkonini beradi.

3. Davlat budjeti xarajatlari samaradorligini baholashning zamonaviy KPI (asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari) tizimini keng joriy etish. Bu budjet mablag'laridan foydalanish natijadorligini oshirish va ularning iqtisodiy samaradorligini aniq baholash imkonini beradi.

4. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish. Ushbu mexanizmlarni rivojlantirish orqali investitsiya faolligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Keynes, J. M. (1936). The General Theory of Employment, Interest and Money. London: Macmillan.
2. Oates, W. E. (1972). Fiscal Federalism. New York: Harcourt Brace Jovanovich.
3. Qodirov, U. (2020). Davlat budjeti xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganligi va aholi daromadlariga ta'siri. Moliya va iqtisod, 4(28), 15–23.
4. Islamkulov, A. X. (2022). Hududiy moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish orqali aholi daromadlarini oshirish. Iqtisodiyot va ta'lim, 6, 42–49.
5. Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan. (2019–2025). Citizens' Budget Reports. Tashkent.
6. World Bank. (2023). Public Finance Review. Washington, DC: World Bank.
7. International Monetary Fund. Fiscal Monitor Reports. Washington, DC: IMF.
8. World Bank. Public Finance and Income Distribution Reports. Washington, DC: World Bank.
9. International Monetary Fund. (2020). Fiscal Monitor: Policies for the Recovery. Washington, DC: IMF.
10. International Monetary Fund. (2022). Fiscal Policy and Inequality. Washington, DC: IMF.
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Davlat statistika ma'lumotlari. Available at: https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_321.pdf



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>